

ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOHKENT-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**  
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:  
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**  
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR  
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**  
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN  
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**  
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA  
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**  
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA  
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**  
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION  
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**  
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR  
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**  
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY  
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**  
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:  
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**  
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI  
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**  
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION  
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**  
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE  
 MANAGEMENT.....64

**13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

**14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.**

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

**TARIX**

**1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.**

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

**2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.**

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

**3. Otamuradova Roviyajon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.**

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

**4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.**

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

**5. Саидов Шавкат Жумабаевич.**

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

**6. Salayev Umrbek Kadambayevich.**

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

**7. Safarov Tolib Todjiyevich.**

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

**8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.**

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

**FILOLOGIYA**

**1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.**

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

**2. B.Q. Sapayeva.**

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**  
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**  
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**  
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**  
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

## PEDAGOGIKA

- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**  
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**  
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**  
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**  
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**  
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**  
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

## PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**  
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**  
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**  
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

Sattarova Dilfuza Dilshodbekova

Ma'mun Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsent v.b, PhD

## O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20155888>

**Annotatsiya.** Maqolada islom moliyasining mazmuni, moliyalashtirish mexanizmlari va mamlakatimizda islom moliyasi faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarining yaratilishi ifodalangan. Shuningdek, ayrim qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar, ularning mazmuni va bu yangiliklarning mamlakatimizda islom moliyasini rivojiga qo'shadigan xissasi haqida ham ma'lumotlar aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** islom moliyasi, islom huquqi, qonunchilik bazasi, qo'shilgan qiymat solig'i, investitsiyaviy omonat, islomiy bank, islom qimmatli qog'ozlari.

**Annotation.** The article describes the content of Islamic finance, financing mechanisms and the creation of a legal framework for the implementation of Islamic finance activities in our country. It also provides information on the amendments made to some legislative acts, their content and the contribution of these innovations to the development of Islamic finance in our country.

**Keywords:** Islamic finance, Islamic law, legislative framework, value added tax, investment deposit, Islamic bank, Islamic securities.

**Аннотация.** В статье описывается содержание исламских финансов, механизмы финансирования и создание правовой базы для осуществления деятельности в сфере исламских финансов в нашей стране. Также представлена информация о внесенных изменениях в некоторые законодательные акты, их содержании и вкладе этих нововведений в развитие исламских финансов в нашей стране.

**Ключевые слова:** исламские финансы, исламское право, законодательная база, налог на добавленную стоимость, инвестиционный депозит, исламский банк, исламские ценные бумаги.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda moliya bozorini liberallashtirish, bank-moliya tizimini isloh qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat moliya bozori hozirgi kunda asosan an'anaviy bank-moliya tizimi va foizga asoslangan moliyaviy instrumentlarga tayangan holda faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, aholi va tadbirkorlik subyektlari orasida shariat tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab mavjudligi ilmiy tadqiqotlar o'z isbotini topmoqda.

Ushbu jarayonda moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish, yangi moliyaviy institutlar va instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, islom

moliyasi tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va ularni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish bo'yicha amaliy harakatlar hali dastlabki bosqichda. Me'yoriy-huquqiy baza, regulyator institutlar faoliyati va iqtisodiy infratuzilma bu sohaga to'liq tayyor emas. Bundan tashqari, islom moliyasining mohiyatini anglash va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yetarli mutaxassislar, shuningdek, ta'lim va tadqiqot bazasi ham hozircha cheklangan. Mazkur maqola aynan ushbu muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud imkoniyatlar va cheklovlarni baholash, shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda islom moliyasini samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan huquqiy shart-sharoitlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Islom moliyasi haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar global va mintaqaviy miqyosda keng ko'lamda olib borilmoqda. Mazkur adabiyotlar sharhi, bir tomondan, islom moliyasining nazariy asoslarini ochib beradi, ikkinchi tomondan esa, uning amaliyotda qo'llanishi va O'zbekiston sharoitida joriy etilishi uchun zarur bo'lgan huquqiy-institutsional mexanizmlarni tahlil qilishga zamin yaratadi.

Jahon banki guruhlari tomonidan Islom bankchiligi va moliyasiga oid bir qator ishchi hujjatlar, ilmiy ishlar va bir nechta kitoblar nashr etilgan, bu esa ushbu sohaning xalqaro ahamiyatidan dalolat beradi. Me'yoriy-huquqiy baza, regulyator institutlar faoliyati va iqtisodiy infratuzilma bu sohaga to'liq tayyor emas. Islomiy banklar faoliyati, sukuk emissiyasi, shariat kengashlari faoliyatini yuritish va islomiy moliyaviy vositalarning yuritilishi uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlar yetarli darajada shakllanmagan [1].

**Natija va tahlillar.** Jahon bank moliya bozorlarida hamkorlar bilan mustahkam teng huquqli aloqalar o'rnatish, aholi va tashkilotlarga xilma xil moliyaviy xizmatlar tanlovini yaratish va muqobil moliyalashtirish shakllarini shakllantirishga qaratilgan islom moliyasi sohasini rivojlantirishni nazarda tutuvchi huquqiy asoslarni yaratishga bo'lgan amaliy qadamlar mamlakatimizda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi tashabbuslari bilan boshlangan edi. Bu haqda Prezident o'z murojaatida ma'lum qildi "Mamlakatimizda islomiy moliya mexanizmlarini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish vaqti keldi. Buning uchun Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlaridan ekspertlar taklif etiladi".

2025-yil sentyabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan "Islomiy bank faoliyatini joriy qilish bo'yicha" qonun loyihasi muhokama qilindi. Ushbu loyiha amaliyotda shariat standartlariga mos bank faoliyatini yo'lga qo'yish, savdo va sheriklik asosidagi moliyalashtirish shakllarini rasmiylashtirish hamda soliq va fuqarolik kodekslariga o'zgartirishlar kiritishni taklif etadi. Maqsad O'zbekistonda islom banklarini rasmiy tartibga solish va ularni an'anaviy tizim bilan uyg'unlashtirishdir.

O'zbekistonda uch yillik muhokamalar natijasida Markaziy bank boshqaruvi "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan Islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorni qabul qildi[2]. Nizom Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 26-iyulda 3536-son bilan ro'yxatga olingan. Ushbu Nizom Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI)ning islom moliyalashtirish standartlari asosida, shuningdek, ilg'or xorijiy tajriba va milliy sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va mikromoliya tashkilotlari tomonidan islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilovchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Nizom 4 bob va 93 ta moddadan iborat.

Nizomda mikromoliya tashkilotlari islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatishda rioya qilishi shart bo'lgan umumiy talablar belgilangan.

Mikromoliya tashkilotlari islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish uchun islom moliyalashtirish masalalarini muvofiqlashtirish uchun maxsus kengash tuzishi yoki uning faoliyatini autsorsing qilishi mumkinligi belgilangan.

Shu bilan birga, agar mikromoliya tashkilotlari qonunchilikka muvofiq boshqa an'anaviy xizmatlarni, Islom moliyalashtirish xizmatlaridan tashqari, taqdim etsa, ushbu mikromoliya

tashkilotining Islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq faoliyati uchun alohida buxgalteriya hisobi yuritilishi kerakligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, ushbu nizom maxsus kengash va uning a'zolariga, shuningdek, Islom lizingi, foydani taqsimlash orqali moliyalashtirish (muzaraba), kredit asosida moliyalashtirish (murabaha), sheriklik moliyalashtirish (musharaka) va oldindan to'lov moliyalashtirish (salam) kabi Islom moliyalashtirish xizmatlariga qo'yiladigan talablarni va ushbu xizmatlarni ko'rsatish talablarini belgilaydi.

2022-yilda qabul qilingan Nizom 20-aprelda qabul qilingan O'RQ-765-sonli "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonun talablariga javob beradi .

Ushbu qonun O'zbekistonda "Islom moliyalashtirish xizmatlari" atamasidan birinchi bo'lib foydalanilgan, ya'ni mikromoliya tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari Islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega ekanligini bildiradi.

Qabul qilingan tartibga muvofiq, tegishli ravishda ro'yxatdan o'tgan (ya'ni rasmiy) mikromoliya tashkilotlari aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga Islom moliyalashtirish tamoyillari asosida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishi mumkin.

Bu sohani rivojidadagi yana bir muhim qadamlardan biri "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'RQ-1126) ning 2026-yil 27-martda qabul qilinishi bo'ldi[3].

Ushbu Qonun Markaziy bank tomonidan mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan birgalikda sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Qonun bilan Soliq va Fuqarolik kodekslari hamda 7 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Xususan, ushbu Qonun bilan:

- qonunchilikka islomiy bank faoliyati, islomiy moliya operatsiyalari, islomiy moliya standartlari hamda investitsiyaviy omonat (depozit) tushunchalari kiritilmoqda;
- islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya joriy qilinib, mazkur litsenziyani olish bo'yicha aniq talablar o'rnatilmoqda;
- islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega banklar tomonidan amalga oshiriladigan islomiy moliya operatsiyalari ro'yxati keltirilmoqda;
- islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga bevosita savdo faoliyatini amalga oshirishga hamda yuridik shaxslarni tashkil etish va yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarni yoki aksiyalarni cheklovlarisiz olishga ruxsat berilmoqda;
- islomiy moliya faoliyati bilan bog'liq masalalarni muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank va banklarda islomiy moliya kengashini tashkil etish hamda uning faoliyatiga doir talablar belgilanmoqda.

Bundan tashqari, islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilmoqda.

Islomiy moliya operatsiyalari o'z tabiatiga ko'ra an'anaviy banklarnikidan farq qiladi, chunki islomiy bankchilik faoliyati — tovar oldi-sotdisi, ijara va sherikchilik kabi real iqtisodiy bitimlarga asoslangan. Shu sababli, agar islomiy moliya mahsulotlariga oddiy tijorat operatsiyalari kabi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) solinsa, ular an'anaviy bank mahsulotlariga nisbatan qimmatlashib, raqobatbardoshligini yo'qotadi.

Aynan shu muammoni hal qilish uchun 2026 yil 27-martda qabul qilingan O'RQ-1126-sonli Qonun Soliq kodeksiga yangi 480<sup>4</sup>-moddani kiritdi.

Xususan, yangi qabul qilingan Qonun bilan QQSdan ozod qilinadigan amaliyotlar ro'yxati e'lon qilindi:

- Islom qimmatli qog'ozlari — sertifikatlar bilan bog'liq amaliyotlar QQSdan, islomiy moliya faoliyati doirasida bank va mikromoliya tashkilotlari tomonidan ishonchli boshqaruv shartnomalari (muzaraba) asosida ko'rsatiladigan pullik xizmatlar ham soliqdan ozod etiladi;

- Mol-mulkni islomiy ijara asosida berishda ijara to'lovlari summasi bilan sotib olish narxi o'rtasidagi ijobiy farq ham QQSga tortilmaydi;
- Bundan tashqari, banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan mijozlarga sotiladigan mahsulotlar/aktivlarga qo'yiladigan ustama ham soliqlardan ozod qilinadi;
- Islomiy ijara asosida ko'chmas mulk beruvchi banklar va mikromoliya tashkilotlari mol-mulk solig'i to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Islom moliyasi bitimlarining muayyan soliqlardan ozod etilishi bu islom moliya muassasalariga berilayotgan imtiyoz emas, balki ularning moliyaviy amaliyotlari an'anaviy bank-moliya muassasalari amaliyotlari bilan bir turdagi amaliyotlar ekanligini e'tirof etish desak to'g'riroq bo'ladi. Zero, islom banklari o'z mijozlarini moliyalashtirish uchun amalga oshiradigan moliyaviy amaliyotlar doirasida muayyan aktivlarni oldi-sotdi qilishlari bu ularning savdo tashkiloti bo'lganligi uchun emas, balki islom moliya muassasalarining moliyaviy amaliyotlari real aktivlarga bevosita bog'liq bo'lishi kerakligi, **murobaha, tavarruq, ijara, kamayib boruvchi mushoraka (mushoraka mutanaqisa)** kabi asosiy amaliyotlarning barchasi real mol-mulkni sotib olish va sotish asosida amalga oshirilishi shartligi bilan bog'liq.

Shuni aytish mumkinki, qonunda belgilangan soliq o'zgarishlari islom moliya muassasalariga nisbatan imtiyozlar taqdim etilganligini emas, balki ularning amaliyotlarini an'anaviy bank-moliya muassasalariga tenglashtirish orqali ikki tizimga nisbatan **adolatli teng munosabatlar o'rnatilayotganligini** ifoda qiladi[4].

Joriy yilda Markaziy bank mahalliy tijorat banklarda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishga tayyorgarlik ishlariga alohida e'tibor qaratishni rejalashtirmoqda. Islom darchalari orqali kamida 6 turdagi xizmatlar ko'rsatishga ruxsat beriladi: muzoraba, vakala, murobaha, salam, mushoraka va ijara (islomiy ijara). Yaqinda qabul qilingan va 29 iyundan kuchga kiradigan qonunga muvofiq, islom moliyaviy xizmatlari ikki shaklda ko'rsatilishi mumkin: "islom darcha"lari orqali yoki to'liq islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi banklar orqali. Amaldagi banklar islom darchalari ochish uchun qo'shimcha litsenziya olishlari kerak bo'ladi, shunda ular an'anaviy va islomiy mahsulotlarni bir vaqtning o'zida taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Zarur infratuzilma shakllantirilgandan so'ng mazkur sohada investitsiyalar hajmi yanada tez o'sishi kutilmoqda. Asosiy maqsad — iqtisodiyot o'sishiga xizmat qiladigan holda investitsiyalar hajmini oshirish va aholi hamda biznes uchun moliyaviy xizmatlar turini kengaytirishdir. Dastlabki baholashlarga ko'ra, bank tizimiga taxminan 1 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilinishi mumkin[5].

Joriy yilda kamida bitta tijorat bankida islom darchasi faoliyatini yo'lga qo'yish, 2026–2030 yillar davomida esa to'liq islom bank faoliyatini amalga oshiruvchi ikkita bank tashkil etish rejalashtirilgan. Buning natijasida 2026–2030 yillarda qo'shimcha ravishda taxminan 1 mlrd dollar miqdorida investitsiya va depozitlarni jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

**Xulosa.** Hozirgi vaqtda O'zbekistonda islomiy moliyaviy vositalarni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ishlar boshlangan. Shu bilan birga mamlakatimizda islom moliyasini joriy etishda kompleks yondashuvga ehtiyoj mavjudligi aniqlanmoqda. Bunda, birinchidan, islomiy moliyaviy mahsulotlar uchun maxsus qonunchilikni ishlab chiqish; ikkinchidan, shariatga muvofiqlikni ta'minlovchi milliy kengashni tashkil etish; uchinchidan, moliyaviy institutlar uchun foizsiz faoliyat yuritish mexanizmlarini litsenziyalash va tartibga solish zarur. Shu bilan birga, sukuk, takaful, ijara va boshqa vositalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali milliy moliyaviy bozorni diversifikatsiya qilish mumkin bo'ladi. Shuningdek, islom moliyasining to'laqonli rivoji uchun xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, aholining islomiy moliyaviy savodxonligini oshirish orqali sektorning qamrovi va ishonchliligi mustahkamlanadi. Umuman olganda, islom moliyasining O'zbekistonda joriy etilishi faqat moliyaviy xizmatlar sohasidagi innovatsiya emas, balki iqtisodiy rivojlanishda halollik, adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi keng qamrovli islohotlar zanjiri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Azizov, S. (2021). Islom moliyasining O'zbekistonda joriy etilishi: muammolar va istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №6.
2. O'zbekiston Respublikasining 20.04.2022 yildagi ORQ-765-sonli “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida”gi Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/5972411>
3. “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'RQ-1126) 2026-yil 27-mart.
4. Jahongir Imamnazarov Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) “Islom moliyasi” loyihasi ham asoschisi rasmiy internet sayti [www.islomoliyasi.me](http://www.islomoliyasi.me)
5. <https://www.spot.uz/ru/2026/04/02/islamic-banking> internet sayti ma'lumotlari.

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].